

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

BUXORO VILOYAT HOKIMLIGI

**ZAMONAVIY
TILSHUNOSLIKNING MILLIY
YUKSALISH VA ILMIY
TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI
O'RNI**

(O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 32 yilligiga
bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari)

**BUXORO – 19.10.2021
«DURDONA» NASHRIYOTI**

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING MILLIY YUKSALISH

A 90

Zamonaviy tilshunoslikning milliy yuksalish va ilmiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni [Matn] : maqola va tezislari to'plami / D.B. Axmedova.-Buxoro: "Sadiddin Salim Buxoriy" Durdona, 19.10.2021.-266 b.

UO'K 81(043.2)

KBK 81.2

MAS'UL MUHARRIR:

Tosheva D.A. – f.f.f.d. (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Ahmedov A.R. – f.f.n., dots.

Rajabov D.Z. – f.f.d.(DSc), dots.

Eshonqulov H.P. – f.f.d.(DSc), dots.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Axmedova D.B. – f.f.f.d (PhD)

Mirxanova G.R. – katta o'qituvchi

Saidova R.A. – f.f.f.d (PhD)

Ushbu Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqola va tezislari to'plamida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining 32 yilligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5850-son Farmonida ko'zda tutilgan "O'zbek tili bayrami kuni"ni keng nishonlash, jumladan: o'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini oshirish va qo'llanish ko'lagini yanada kengaytirish shuningdek o'zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeyini yanada yuksaltirish, davlat tilining rivojlanishi, tarixiy taraqqiyoti, istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, o'zbek nazariy tilshunosligi, leksikologiya hamda leksikografiysi, til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar va amaliy filologiyani rivojlantirish, o'zbek tili ta'limi muammolari, davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyati masalalari borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy, amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirilar.

MUNDARIJA

№	Muallif(lar)	Mavzu	Bet
1	Daminov Mirzohid	Til – millatning ruhi	8
2	Zaripov Botir	Davlat tili – milliy taraqqiyot va sog'lom tafakkur mezoni	11
2	Xamidov Obidjon	O'zbek tilining nufuzi va ravnaqi	14
3	Qirg'izboyev Abdug'affor	Ona tilimiz rivoji va taraqqiyoti yo'lida	17
4	Qahhorov Otobek	Til – buyuk va qadrli ne'mat	19
5	Huseynova Abira	Sen millat mulkisan – ona tilim	22
6	Azimov Inomjon	Ta'lim tizimida davlat tilini o'q'itish muammolari	25
7	Rustamov Akbar	Til – inson kamolotining ko'zgusi	31
8	Jabborov Nurboy	Til – milliy ruh manbayi	34
9	Abuzalova Mehriniso	Davlat tiliga sadoqat Vatanga sadoqatdir	45
10	Pardayev Azamat	Betakrorimsan, yagonamsan, navqiron ona tilim!	50
11	Bahriiddinova Bashorat	Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli	55

**1-SHO'BA: TILSHUNOSLIKNING AN'ANAVIY VA
ZAMONAVIY YO'NALISHLARI**

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Axmedova D.B., Hamidova I.O.	Tilga sistem yondashuvning lingvistik konsepsiyalari	59
G'aybullayeva N.I.	Tibbiy birliklar platformasini yaratishning amaliy ahamiyati	63
Muhiddinova F.	Huquqiy til: uslub va huquqshunoslik nutqining o'zaro uyg'unligi	70
Saidov Y.S.	Turkiy tillar oilasida o'zbek tilining o'rni	76
Mirxanova G.R.	O'quv lug'atchiligidagi sinonim lug'atlarning o'rni	82
Rustamova Sh.	Lisoniy vositalarning tanlanishida nutqiy vaziyatning o'rni	86

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING MILLIY YUKSALISH

Saidova R.A.	Badiiy matnni semiotik tahlil qilishda lingvistikaning o‘rni	92
Amonov U.S.	Abdurauf Fitrat paremik janrlardan biri haqida	98
Qurbaniyozov G.	Zahiriddin Muhammad Bobur – ona tilining bilimdoni	102
Sharipova M.	“Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan “qo‘y” lug‘aviy ma’noviy guruhi tasnifi	108
Mirsharipova Sh.	Pirimqlul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida ayollar obrazi	112

2-SHO‘BA: DAVLAT TILINING SOFLIGINI SAQLASH, LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Mengliyev B.R.	Davlat tili – ijtimoiy taraqqiyot mezoni	116
Jo‘rayeva B.M.	Ajdodlardan meros ona tili bu, Avlodlar-chun e’zoz ona tili bu	119
Ro‘zimurodova D.D.	O‘zbek tili va uning terminologiyasi	126
Jabborova G.J.	Происхождение узбекского языка	129
Shodiyeva D.Y.	Компетентностный подход к образованию требование современности	131
Salixova Z.A.	Формирование читательских компетенций (на примере литературного чтения)	140
Xolmuratov I.	Turkiy tillarga mansub ba’zi toponimlar xususida (Amudaryo tumani misolida)	144
To‘xtayeva D.	Tilshunoslikda maqol va matalga munosabat	150
Babamurdova L.X.	Роль языка и фольклора в нравственном и эстетическом воспитании личности	155
To‘yev F.E.	Milliy g‘ururimizni yuksaltirayotgan bebahon ne’mat	161
Hasanova S.S.	O‘zbek tilim – jonajon tilim	165

**3-SHO'BA: O'ZBEK TILI RAQAMLI LINGVISTIK
RESURSINING TAKOMILLASHTIRILISHI**

Muallif(lar)	Mavzu	Bet
Tosheva D.A.	A value of oral national creativities for keeping purity of the national language	168
Salixova Z.A., Saidova S.O.	Читательская компетенция у будущих педагогов	171
Quvvatova D.H., Sharipova Sh.	Cho'lponning "Oydin kechalarda" hikoyasi va tizimli tahlil	176
Xalilova R.R.	Virtual maydonda nutqiy muloqotning o'rni va ahamiyati	183
Maxmudova S.X., Fayzullayev M.B.	"Ostona" lingvomadaniy birligining milliy qadriyatlarda voqelanishi	186

**4-SHO'BA: ONA TILI METODIKASI RIVOJI – XALQ TA'LIMI
TIZIMI ISLOHIDIR**

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Yuldasheva D.N.	Maktabda ona tili ta'limi: talab va ehtiyoj	190
To'yeva Z.N.	Баён – она тили таълим мининг бош мақсади билан ҳамоҳанг	194
Yusupova D.Y.	H. Xudoyerdiyeva she'riyati tilini o'rganish	199
Boltayeva M.Sh., Ne'matova D.	Эффективность применения интерактивных методов на занятиях в высших учебных заведениях	204
Ravshanov A.	Хуқуқ ва тил илмларининг тараққиёти	208
Boltayeva M.Sh., Boltayeva M.Sh.	Инновационные методы преподавания русского языка и литературы	213
Ubaydova D.A., Abulova M.O.	Эффективность использования интерактивных методов обучения в преподавании русского языка	218
Kanaatova G.O. Amerlan Y.S.	Интеграция в учебном процессе	223
Sharipova D.Q.	Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarga grammatik bilimlar berishda izchillik	228

Djabborova M.Q.	Boshlang‘ich ta’limda filologik tahlil malakasini shakllantirish	230
-----------------	--	-----

**5-SHO‘BA: XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING DOLZARB
JIHATLARI**

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Kadirova N.A., Nurulloyeva Sh.	Improving teaching foreign language	233
Adizova N.B., Muzaffarova S.	Xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb jihatlari	236
Pulatova M.T., Hasanova A.	O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitishning ahamiyati va dolzarbligi	240
Ergasheva D.K.	Использование песен на уроке русского языка для развития лексических навыков	242
Aglamov T.X.	Воспитание у студентов интереса к изучению русского языка	245
Turayeva X.T.	Мотивация изучения иностранного языка	249
Mamatohunova Y., To‘xtamurodova N.	Xorijiy tillarga ko‘rsatilayotgan e’tibor barcha sohalarning ravnaqi uchun poydevordir	252
Ro‘zimurodova Z.Z., Aslonova Sh., Ergasheva F.	Xorijiy tillarni o’rgatishda adabiyotning o‘rnii	255
L.M.Mustafoyeva	Использование информационных технологий в образовательном процессе вуза	259
Quvvatova D.H.	Ona tilim	263

4-SHO'BA: ONA TILI METODIKASI RIVOJI – XALQ TA'LIMI TIZIMI ISLOHIDIR

MAKTABDA ONA TILI TA'LIMI: TALAB VA EHTIYOJ

Dilorom Yuldasheva

BuxDU professori

Odatda, ehtiyoj insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruratini ifodalaydi. Demak, ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruratini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiyligi va doimiy hisoblanadi. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil ijtimoiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi [5].

Hozirda ta'lismi oluvchining mактабда о'ргатилиши mo'ljallangan ona tiliga bo'lgan ehtiyoji nimada? Grammatik bilimlарgами yoki ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishga imkon berадиган testlarni baholi qudrat uddalashgами? Bularni o'quvchining mактабда ona tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoji deb bo'ladimi?

O'rta umumta'limga ona tili ta'limi talabi ta'lismi oluvchi ehtiyojlariga mosmi? Bu savolga ijobiy javob qaytara olamiz. Unda muammo nimada? Muammo *ta'lismi beruvchining ona tili ta'limi talabi va ta'lismi oluvchi ehtiyojini to'la anglab yetmasligida*, bizningcha.

Bugun o'rta umumta'limga, o'rta maxsus ta'limga ona tilidan dars berayotgan har bir o'qituvchi: "Nega ta'limning barcha tur va bosqichlarida ona tilini o'qitamiz?" degan savolga ijtimoiy buyurtma talabidan kelib chiqib javob izlashi zarur. Zero, bugungi kun ta'lismi mazmuniga muvofiq o'quvchiga ta'lismi jarayonida nazariy bilim asoslaridan foydalanish ijodiy faoliyat ko'rsatish, ya'ni ijodiy amaliy faoliyat uchungina zarur bo'ladi, xolos. Tom ma'noda, bugungi kun mактаб, litsey hamda kasb-hunar kolleji ta'lismi-tarbiyasini ko'rgan o'quvchi nazariy bilimlar

sohibi emas, balki bilimlardan ijodiy foydalana oladigan ijodkor, tadbirkor bo‘lib yetishishi zarurligi nazarda tutilmoqda. Ona tili ta’limi maqsadi uning mazmunini, mazmun esa ta’lim usulini, tabiiyki, usul ta’lim vositalarini, o‘z navbatida, ta’lim vositalari o‘qituvchi~o‘quvchi munosabatlarini taqozo etadi.

Xalqimizda: “Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lur”, degan maqol bor. Barcha zamonlarda ham o‘qituvchining ish quroli, asosan, darsliklar bo‘lib kelgan. Bugun o‘quvchilarga ona tilini o‘qitish matematika ta’limidan ko‘ra og‘irroq bo‘lyapti. Nega? Sababki, ona tili o‘qituvchisining “ish quroli” – darsliklar talab darajasida o‘zini oqlolmayapti. Ayniqsa, o‘rta umumta’lim maktablari hamda o‘rta maxsus ta’limning ona tili darsliklarida aynan bir mavzuning goh an’anaviy, goh shakl-vazifaviy, goh tavsifiy talqinlariga murojaat etilgan holatda turlicha ifodalanishi, boz ustiga, bunday “kemtiklik”larning oliy ta’limga kirish testlariga ham ko‘chishi hafsalani pir etadi. Zero, respublikamizda amalda bo‘lgan bir necha tilshunoslik maktablarining ba’zi nazariy qarashlari bir-birini rad etishini yaxshi bilamiz [3].

Fikrimizni dalillash uchun faktlarga murojaat etaylik: Orta maxsus ta’limning 2-bosqichi hamon “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi[2]dan foydalanmoqda. Unda “*Egalik shakllarining uslubiy xususiyatlari*” mavzusi berilgan. Mavzu tarkibidagi qoidada: “*Otlarning uch shaxsdan biriga mansub ekanligini bildiruvchi shakllar tizimi egalik qo‘sishchalari sanaladi*”, deyiladi. Keyingi tadqiqotlarda egalik, kelishik kategoriyalari faqatgana otga emas, balki ismlar(ot, sifat, son, taqlid, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlar)ga tegishliligi aniqlandi va amaldagi darslik[3,158], qo‘llanmalarda bunga yetarlicha izoh berildi-ku?!

Yoki “*Fe’l va uning uslubiy xususiyatlari*” mavzusini sharhlovchi matnda: “Fe’l qanday harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi.

1. **Yumush fe’llari:** *ishladi, mehnat qildi, ter to ‘kdi va b...*
2. **Tafakkur fe’llari:** *o ‘ylaydi, o ‘qidi, kashf qildi* kabi...
3. **Sezgi fe’llari:** *sezdi, his qildi...*

4.**Ruhiy holat fe'llari:** *kuldi, xursand bo 'ldi, qayg 'urdi, iztirob chekdi...*

5.**Nutq fe'llari:** *gapirdi, so 'zjadi, bayon qildi, ifoda qildi...*

6.**Ishora fe'llari:** *imo qildi, labini burdi, ko 'zini qisdi...*

7.**Jismoniy holat fe'llari:** *og 'ridi, isitma chiqdi, xastalandi...*

8.**Tabiiy holat fe'llari:** *eridi, muzladi, yetdi, uxladi...*

9.**Ko'rish fe'llari:** *qaradi, ko 'rdi, boqdi, termuldi»* deyiladi.

6-sinf “Ona tili” darsligi[1]da: “Fe’llar nimani atab kelishiga ko‘ra harakat fe’llari va holat fe’llariga bo‘linadi” deyilsa, oliv ta’lim darsligida esa fe’lning asosiy lug‘aviy ma’no guruhlari (LMGlari):

1.**Harakat fe'llari:** *yurmoq, kezmoq, yo 'rg 'alamoq, chimchilamoq;*

2.**Nutq fe'llari:** *gapirmoq, so 'zlamoq, aytmoq, demoq;*

3.**Holat fe'llari:** *eslamoq, unutmoq, shodlanmoq, zaiflashmoq;*

4.**Natijali faoliyat fe'llari:** *yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq;*

5.**Tafakkur fe'llari:** *o 'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq;*

6.**Munosabat fe'llari:** *suymoq, yaxshi ko 'rmoq, parvona bo 'lmoq kabilardir,* deyiladi.

(Balki tasniflarning har xilligi fan uchun foydalidir, ammo o‘quvchi uchun emas, bizningcha. Sababki, biz jamiyat uchun barchani tilshunos qilib tayyorlab bermaymiz va bunga ehtiyoj ham yo‘q.) Mazkur darslikda “*Mayl qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari*” mavzusi tarkibidagi qoidada eskicha yondashuvlar saqlab qolingan: “*So 'zlovchining fe'lidan anglashilgan harakat-holatiga munosabatini bildirgan fe'l shakllariga mayl shakllari, shunday shakllar tizimiga esa mayl kategoriyasi deyiladi*”. Qiziq, biz o‘rta maktab ona tili darsliklarida o‘quvchiga “Kesim—gapning markazi, fe'l kesim ham, ot kesim ham kesimlik shakllari bilan shakllangan bo‘ladi”, dedik. Kesimlik kategoriyasi tarkibi, odatda, zamon, shaxs/son, mayl/modallikdan iboratligini aytdik. Demak, bundan

shunday xulosa kelib chiqadi: «Kesimlik kategoriyasi tarkibi hisoblangan zamon, shaxs/son, mayl/modallik kesim vazifasida keluvchi har qanday so‘zga tegishlidir. O‘zbek tilida kesim vazifasida eng ko‘p qo‘llanila oladigan so‘z turkumi fe’l bo‘lib, kesimlik kategoriyasi shakllarini boshqa mustaqil so‘z turkumlaridan ko‘ra fe’llar ko‘proq o‘zida ifodalagani uchun kesimlik kategoriyasi shakllari fe’lning munosabat shakllari deb yuritilmoqda”.

“Men o‘qituvchiman.; Qovun shirin ekan.; Yugurish musobaqasida men birinchiman.; Bolani xafa qilgan kishi-shu” kabilarda ot kesimlar ifodalangan. Agar yuqoridagi qoidaga tayansak, bu kabi gaplarning shakllangan kesimini qanday izohlaymiz?! Ifodalangan ot kesimlarning barchasi xabar maylida turibdi-ku?! Darslikda shaxs-son, zamon kategoriyalari ham fe’l so‘z turkumining «oyog‘iga bog‘lab qo‘yilgan». Shaxs/son, zamon kategoriyalari kesim vazifasida kela oladigan istalgan atov birligiga xosligini darslik mualliflari o‘rinsiz inobatga olishmagan va qator grammatik chalkashliklarning kelib chiqishiga sababchi bo‘lishgan.

Unutmaylikki, davrimiz uchun har qanday ta’lim jarayoni emas, balki o‘quvchida ijodiy, mustaqil faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-biluv jarayonigina ahamiyatlidir. Albatta, bu borada oilaning ham alohida o‘rni bor. Ota-onalarimiz mакtabda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida tahsil olayotgan farzandlarining ijodiy tafakkurini o‘stirishga xizmat qiluvchi “Axborot banki” – turli xarakterdagi lug‘atlar, qomuslar, ma’lumotnomalar kabilar bilan ta’minlashga, ulardan o‘rinli va samarali foydalanishlariga ko‘maklashishlari o‘ta muhim.

Yuqorida: “Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo‘lgan zaruriyat” ekanligini ta’kidladik. Demak, o‘rta umumta’limda ham, o‘rta maxsus ta’lim tizimida ham ona tili ta’limi ta’lim oluvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘lmog‘i

zarur. O'quvchining ona tili ta'limga bo'lgan ehtiyoji ham ijtimoiy buyurtmaning ana shu talabiga hamohangdir. Zero, til tafakkurning moddiylashuvidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –T.: Tasvir, 2019.
2. Nurmonov A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylarlarning 2-bosqich talabalari uchun darslik). –T.: Ilm-ziyo, 2018.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b.
4. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ehtiyoj>.

БАЁН ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИНИНГ БОШ МАҚСАДИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ

Зулфия Нозимовна Тўева

БухДУ тадқиқотчиси

Она тили таълими фундаментализм ва академизм йўналишида билимдон ижрочи шахсни тарбиялаш тизимидан прагматик йўналишда тадбиркор ва ижодий тафаккур соҳиби бўлган шахсни тарбиялаш тизимига ўтди. Она тили таълимининг истиқлол шарофати билан янгилangan мақсади, мазмuni ҳар бир ўкув соатида ўкувчиларга қандай билимларни ва қанақа малакаю кўникмаларни сингдиришни талаб қилмоқда? Дидактика тарихидан маълумки, билим, кўникма, малака ҳамда ижодкорлик ҳар доим бир-бирини тақозо қиласиган ҳодисалардир [3]. Шу ўринда биринчи Президентимизнинг: «Албатта, билим керак. Аммо билим ўз йўлига. Мустақил фикрлаш ҳам катта бойлиkdir» деган сўзларини эслаш кифоядир. Демак, бугунги кундаги она тили таълими мазмuni сирасида ўкувчиларга тақдим этилаётган